



UO'K: 631.4, 631.5, 631.6.

## ORGANIK USULDA QORA SEDANA YETISHTIRISH

<sup>1</sup>S.M.PO'LATOV, <sup>2</sup>I.U.BEKPULADOV,

<sup>3</sup>K.S.MUSTAFOYEVA

<sup>1</sup>*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining*

*Toshkent filiali kafedra mudiri*

<sup>2</sup>*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali tayanch doktoranti,*

<sup>3</sup>*Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabasi*

**Annotatsiya.** Dunyoda shunday ziravor borki, nafaqat ta'mi, balki davolovchi xususiyatlari sabab tabobatda ham, tibbiyotda ham nihoyatda qadrlanadi. Biz uni har kuni non mahsulotlari, turli taomlar ustiga sepilgan holda iste'mol qilamiz. Buyuk hakim bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino uni organizmning energiyasini rag'batlantirib, depressiya va charchoqni tiklashga yordam beradigan urug' deb nomlagan. Ushbu maqolada qora sedan abo'yicha ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Qora sedana, organik usul, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, yetishtirish, hosildirlik, urug'.

Xalq orasida "ming dardga davo" deb ta'riflanuvchi qora sedana haqida bormoqda. Sayyoramiz aholisi uni Rim kaliandri, nigella, kaindji kabi nomlar bilan ham atashadi. Dunyo oshxonasida qora sedana yoqimli achchiqroq ta'mi sabab taomlarga o'zgacha maza beruvchi qo'shimcha sifatida mashhur. Zamonaviy tibbiyotda esa turli kasalliklarga shifo bo'luvchi dori vositasidir. Shu bois, jahonda ushbu mahsulotga bo'lgan talab kun sayin ortib boryapti.



Bunga mos ravishda ko'plab davlatlarda qora sedana yetishtirish va qayta ishlash sanoati ham rivojlanmoqda.

Yurtimiz sharoitida qora sedana asosan Sirdaryo, Xorazm, Samarqand va Toshkent viloyatlarida yetishtiriladi. Bu hududlarning iqlim sharoiti va tuproq imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lsa kerak. Ammo mutaxassislarning aytishicha, serquyosh diyorumizning barcha yerlarida qora sedana yetishtirish imkoniyatlari bor.

Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan Sirdaryo viloyatida yangi usuldagi tajriba loyiha – organik qora sedana yetishtirish boshlandi. Sirdaryo tumanidagi foydalanilmayotgan 20 gektar yer maydoniga ishlov berilib, jahon standartlari talabi asosida tayyorlangan yerga 300 kg organik qora sedana urug'i qadaldi. Ilk hosil qora sedananing o'z "odati"ga ko'ra, 90-100 kunda olinishi rejalashtirilgan.

Organik, ya'ni, "ekologik toza" talablari asosida mahsulot yetishtirish uchun aynan qora sedana tanlanganining bir qancha sabablari bor.

Chunki jahon va Yevropa bozori o'rganilganda organik sedanaga talab katta ekani ayon bo'ldi. Qora sedana inson salomatligi uchun vitaminlar manbai bo'lgan yog' olish, dorivor vositalar va kosmetologiyada keng qo'llanilgani bois, bozori ancha chaqqon mahsulotlar qatorida turibdi. Qolaversa, mahalliy sharoitda ham organik qora sedanadan turli sohalarda samarali foydalanish mumkin. Loyiha uchun aynan Sirdaryo viloyati tanlanganiga kelsak, ushbu hudud qishloq xo'jaligida foydalanilmagan ekin yer maydonlari mavjud va bu organik usulda mahsulot yetishtirishni joriy qilish uchun eng maqbul yechimlardan biri hisoblanadi.

Qolaversa, Sirdaryoning yer, suv va tabiat resurslari boy. Aholi jon boshiga ekin maydonlari boshqa hududlarga nisbatan 2-3 baravar ko'p. Viloyatda qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlanganlik darajasi ham yuqori. Davlatimiz rahbari Sirdaryoga tashrifi chog'ida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida imkoniyatlar hali ko'pligini ta'kidlagani bejiz emas.



Ayniqsa, hududning agrar tarmog'iga ilm va innovatsiya olib kirilsa, mahsulot yetishtirish hajmi va eksportini yanada oshirish imkoniyatlari yuqori.

Organik qora sedana yetishtirish tajriba loyihasi xususiy sektor bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilgan. Hamkor korxonada bir qancha talablar asosida tanlab olingan va "Srop production organics Ltd" kompaniyasi bilan birgalikda ishlar boshlab yuborilgan.

Oddiy qora sedana bilan organik usulda yetishtirilganining farqi nimada? Aslida, nafaqat sedana, balki istalgan mahsulotni organik usulda yetishtirish oson emas, uning o'z talablari bor. Bunda har bir jarayon nazoratga olinadi – tuproq tarkibidan tortib, mahsulotni kimyoviy qo'shimchalarsiz, "ekologik toza" talablari asosida yetishtirishgacha bari sifat mezonlariga javob berishi zarur. Jarayonda faqat biologik toza preparat va o'g'itlardan foydalanish nazarda tutiladi.

Odatiy so'zlashuvda "ekologik toza" tarzida qo'llaniladigan organik so'zi "cheklangan" ma'nosini anglatadi. Ya'ni, bunday mahsulot qo'shimcha mineral o'g'itlarsiz, zaharli ximikatlarsiz va boshqa texnogen ta'sirlarsiz, zamonaviy texnologiyalar asosida yetishtiriladi yoki tabiiy toza xomashyolardan olinadi. Bozorlarda sun'iy mahsulotlar ortib borayotgan bugungi davrda organik oziq-ovqatlarga talab har qachongidan oshgan. Shunga mos ravishda bunday mahsulotlarning qiymati ham dunyo bozorida anchayin yuqori. Hatto, organik qishloq xo'jaligi jahon trendiga aylangan. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoning 179 mamlakatida organik qishloq xo'jaligi rivojlanmoqda. 2021-yili ushbu yo'nalishdagi xalqaro bozorlardagi savdo aylanmasi 106,4 milliard yevroni tashkil etib, 3,1 million ishlab chiqaruvchi ushbu faoliyat turi bilan shug'ullangan. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich yanada o'smoqda.

Mutaxassislar ishni normativ hujjatlar va jahon standartlarida belgilangan standartlar bo'yicha zararli kimyoviy moddalar, pestitsidlar va me'yoridan ortiq mineral o'g'itlardan holi bo'lgan yer tanlashdan boshlagan.



Kunlar isiy boshlashi bilan yerga yana hech qanday zararli moddalardan foydalanmasdan, qo‘l mehnati va mexanik usulda ishlov beriladi. Yerga qadalgan qora sedana urug‘i ham maxsus “Organik” sertifikatiga ega bo‘lishi lozim.

Olib boriladigan agrotadbirlardan tortib, hosilni yig‘ib-terib olish va eksportga yo‘naltirish ishlari ham faqat “sog‘lom muhit”da olib borilishi kerak. Vegetatsiya davrida muvofiqlikni baholash organlaridan inspektorlar kelib, organik usulda olib borilayotgan tadbirlar bilan tanishib chiqadi. O‘simliklardan namuna olib, o‘z tahlillarini o‘tkazadi. Agar ishlab chiqarilgan mahsulotda nomuvofiqliklar aniqlanmasa, maxsus sertifikat beriladi va “organik mahsulot” deb tan olinadi. Tayyor bo‘lgan organik qora sedana nafaqat foydaliligi, balki eksportbopligi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan qishloq xo‘jaligini organik dehqonchiliksiz tasavvur etish qiyin. Bunday dehqonchilikning asosi tuproq sifatini yaxshilab, yer unumdorligini oshirishga qaratilgani holda, ekologik toza, serhosil mahsulot yetishtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, biologik dehqonchilikni yuritish soha olimlaridan doimiy o‘rganishlar, ilmiy tadqiqotlar va yangi chora-tadbirlarni talab etadi. Oxirgi yillarda yurtimiz sharoitida ham bu borada jiddiy ishlar olib borilmoqda. Birgina 2022-yilda 9 ta paxta-to‘qimachilik klakteriga tegishli 7 ming 344 gektar maydonda “Organik” xalqaro standart talablari asosida paxta xomashyosi yetishtirildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi 15 ta hududning 5,9 ming gektar maydoni organik meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashtirildi. Bugungi kunda mamlakatimizda yetishtirilayotgan 34 ta mahsulot “Organik” sifat sertifikatiga ega. Ulardan biri qora sedana hisoblanadi.

Ibn Sino bobomiz qora sedanani ko‘plab kasalliklarga davo, deganicha bor. Ushbu mahsulotga qadimdan davolovchi vosita sifatida qaralgan. Ayniqsa, Osiyo va Yaqin Sharqda yuqori qadrlanadi. Aynan shu mintaqa odamlari ilk bor uni dori vositasi sifatida qo‘llay boshlagan ekan.



O'simlik urug'lari ko'plab shifobaxsh xususiyatlarga ega bo'lib, organizmdagi turli-tuman biologik jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Immunitetni mustahkamlash, shamollash va yallig'lanishlarni olish, og'riq qoldirish, stresslardan xalos etish va boshqa ko'plab kasalliklarni davolovchi ta'sirga ega. Qora sedana asosida tayyorlangan vositalar ko'plab xastaliklarning oldini olishda ham qo'llaniladi. Jigar, nafas yo'llari va yuqumli kasalliklarda tengsiz, deya baholanadi. Jahon bozorida, ayniqsa, qora sedana yog'iga talab katta.

Yurtimizda ilk bor organik usulda qora sedana yetishtirish yo'lga qo'yilganining yana bir sababi bor. Gap shundaki, ushbu o'simlikni ekish hisobiga tuproq yer strukturasi yaxshilash, unumdorligi, donodorligini oshirish, ekologik muhitni saqlash ko'zda tutilgan.

Qora sedana Sirdaryo viloyatidagi sho'rlangan yerlarga ekilishi natijasida ularning sho'rlanganlik darajasini kamaytiradi. Ushbu o'simlik almashlab ekish uchun ham mos keladi. Yerlarning sho'rlanish darajasi kamayganidan keyin kunjut, mosh, soya, oq fasol va boshqa ekinlarni ham organik usulda yetishtirish rejalashtirilgan. Prezidentimizning 2020-yil 18-maydagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Farmonida ham bu boradagi aniq vazifalar belgilangan.

Loyiha tashabbuskorlari qora sedana urug'lari qadalgan yer maydonining har gektaridan 1-1,5 tonna hosil olishni ko'zlamoda. Tayyor mahsulotning xaridorlari ham naqt – hozircha Germaniya va Norvegiyalik hamkorlar bilan savdo shartnomalari imzolangan. Yuqorida aytganimizdek, organik qora sedanaga asosan Yevropada talab yuqori bo'lib, mahsulot narxi ancha qimmatga baholanadi.

Mutasaddilarning ta'kidlashicha, dastlab Sirdaryoda boshlangan loyiha yaqin yillarda yurtimizning barcha hududlarida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda esa mamlakatimizdagi barcha fermer xo'jaliklarida organik qishloq



xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha seminarlar olib borish, ularga ekishdan tortib, eksportga yo'naltirishgacha bo'lgan jarayonni turli media mahsulotlar orqali yetkazish, maxsus qo'llanmalar yaratish ustida ishlar olib borilmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ataboyeva X.N. "O'simlikshunoslik" Toshkent, "Mehnat", 2000.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.: Агропромиздат. 1985. –С. 255.
3. Allashov B., Jamolov S. Sug'oriladigan maydonlarda ozuqabop ekinlarni yetishtirish. Fermerlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2019-yil. 9-bet.
4. Axmedov E., Berdiyev E. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan o'quv qo'llanma Toshkent, 2017. 25-bet.
5. Ahmedov O'., Ergashev A., Abzalov A. Dorivor o'simliklar va ularni o'stirish texnologiyasi. Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 2011. 232-bet.
6. To'xtayev B. Maxkamov T., To'laganov A., Mamatkarimov A., Mahmudov A. va Allayarov M. Dorivor va ozuqabop o'simliklar plantasiyalarini tashkil etish va xom ashyosini tayyorlash bo'yicha "Yo'riqnoma" Toshkent, 2015. - B. 35-137.
7. To'xtayev B., Allaberdiyev R. Botanika bog'i – O'zbekistonda o'simliklar genofondini saqlash va boyitishga yo'naltirilgan ilmiy maskan//O'simliklar introduksiyasi: yutuqlari va istiqbollari. Respublika anjumanmateriallari. 2013. B. 10-12.
8. Dorivor va ozuqabop o'simliklar plantasiyalarini tashkil etish va xomashyosini tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma, Toshkent, 2015, - B. 35-37.